

**Ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi  
TN-27 sonli SHARTNOMA**

Toshkent sh.

20 yanvar 2022 y.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUKning Toshkent shahar filiali (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan 07 yanvar 2022 y. 5/04-04-sonli Ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi direktor B.A.Shobo'tayev bir tomondan va "TOSHKENT SHAHAR SUV TA'MINOTI" MChJ (keyingi o'rinlar «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi dit. M.N. Abdalov, ikkinchi tomondan, birgalikda «Tomonlar», quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

**I. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha: **Yashnabod tumani, Istiqlol mahallasi, Parkent ko'chasi, "O'zbekneftgaz" AYoQSH oldida ichimlik suvi tarmog'ini mukammal ta'mirash**, ob'ektining loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi. Buyurtmachi, o'z navbatida, ekspertizadan o'tkazish ishlari uchun to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Ekspertizani o'tkazish muddati mazkur shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq Buyurtmachi tomondan oldindan pul mablag'lari o'tkazilgandan so'ng 30 ish kuni, agar Buyurtmachiga hujjatlarni taqdim etish bo'yicha (kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida) xat yuborilgan bo'lsa, ishlarni bajarish muddati Bajaruvchining xatida belgilangan davrga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

1.3. Ekspertizadan o'tkazishga Buyurtmachining 20.01.2021-yildagi №30724-sonli xati asos hisoblanadi.

1.4. Ekspertizadan o'tkazish ishlarining yakuniy natijasi ekspert xulosasi hisoblanadi.

1.5. Bajaruvchi mustaqil ravishda hamda uchinchi shaxslarni jalb etish bilan Buyurtmachi manfaatlarini ko'zlab ishlarni bajaradi.

**II. SHARTNOMA BAHOSI VA O'ZARO HISOB-KITOB TARTIBI**

2.1. Kelishuv bayonomasiga muvofiq (1-ilova) shartnoma bahosi va ekspertizadan o'tkazish ishlarining umumiy qiymati: 621 000 (Olti yuz yigirma bir ming so'm 00 tiyin.) so'm, shu jumladan QQS 15% 81 000 (Sakson bir ming so'm 00 tiyin.) so'm.

2.2. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma imzolangandan so'ng 3 (uch) kun ichida shartnoma umumiy qiymatining 100 % miqdorini oldindan to'laydi, ishlar bajarilgandan so'ng topshirish-qabul qilish dalolatnomasi va hisob-faktura imzolaydi.

2.3. Ekspertizadan o'tkazish ishlari bajarilib, o'zaro to'liq hisob-kitob qilingandan so'ng, Bajaruvchi aybdor bo'lmagan taqdirda mazkur shartnoma predmeti bo'yicha takroran ekspertizaga taqdim etilsa, takroriy ekspertizadan o'tkazish uchun haq to'lash yangi shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

2.4. Shartnoma majburiyatlari bekor qilinganda, shartnomaviy hujjatlar (bajaruvchining nusxalari) hamda qayta ishlashga va takomillashtirishga qaytarilgan loyiha materiallari taqdim etilmaganda, bajarilgan ish hajmidan qat'iy nazar to'langan mablag'lar qaytarilmaydi.

**III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI**

3.1. Bajaruvchi taqdim etilgan loyiha hujjatlarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ekspertizadan o'tkazish majburiyatini oladi;

3.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma yuzasidan quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) Bajaruvchiga ekspertizadan o'tkazish uchun zaruriy tegishli hujjatlarni o'z vaqtida to'liq taqdim etish;

b) ekspertizadan o'tkazish xizmati haqini o'z muddatida shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq to'lovni amalga oshirish;

v) ekspertiza xulosasini olish bilan birgalikda ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilib olish. Hujjatlar olib ketilmagan taqdirda Bajaruvchi ularning saqlanishi uchun javob bermaydi.

**IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI, NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

4.1. Buyurtmachi Bajaruvchiga bajarilgan ishlar uchun to'lovning kechiktirilgan har bir kuni uchun shartnoma bahosining 0,4% miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. Bajaruvchi Buyurtmachiga ekspertizadan o'tkazish ishlarini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda kechiktirilgan har bir kun uchun shartnoma bahosining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.3. Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

4.4. Mazkur shartnomaning bajarilishi yuzasidan tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchilik muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

4.5. Nizolarni muzokoralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, kelishmovchiliklarni bartaraf etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda Toshkent shahar tumanlararo Iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## V. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR MAJBURIY SHARTLAR

5.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar:

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid bo'lgan har qanday hatti-harakatlarini amalga oshirmaslik;

- shu jumladan pora taklif qilmasligi, va'da bermasligi, tovlamachilik qilmasligi, to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita pora olishiga, ya'ni moddiy boyliklar yoki mulkiy imtiyozlarni olishga rozilik bermasligi, pora beruvchining manfaatlari yo'lida «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK Toshkent shahar filial xodimi o'z lavozimidan foydalangan holda amalga oshirishi yoki amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayyan harakatlarni bajarmasligi shart.

Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish uchun choralar ko'rilishini kafolatlaydilar.

5.2. Agar tomonlar shartnoma shartlarining buzilishiga duch kelsa, shuningdek, «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK Toshkent shahar filial xodimlarining ushbu shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lgan hatti-harakatlari, shu jumladan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etilganligi haqida quyidagi aloqa kanallariga murojaat qilish mumkin:

«Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK ishonch telefonlari: 71 210 11 04, 71 244 10 47.

## VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

6.1. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

6.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

6.3. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 3 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

## VII. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmay kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Fors-major holatlari deb quyidagilar hisoblanadi:

- tabiiy ofatlar, yong'in, epidemiya, avariya hamda boshqa omillar va holatlar, bunday holda majburiyatlarni bajarish muddatlari fors-major holatining davom etish muddatiga mutanosib tarzda uzaytiriladi.

7.2. Ikkala taraf mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi fors-major holatlarining boshlanganligi va tugaganligi to'g'risida bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilishi lozim.

7.3. Fors-major holatlarini vaj qilib keltirayotgan taraf ularning tasdig'i sifatida vakolatli davlat organining tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

## VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha yuridik kuchga ega.

8.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxa aynan bir hil va teng yuridik kuchga ega.

### Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

#### Bajaruvchi:

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi  
huzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi"  
DUK Toshkent shahar filiali

Manzil: 100012, Toshkent sh., Abay ko'ch., 6-uy  
H/R: 2020 8000 6008 8257 3015  
STIR: 305 550 214 IFUT: 71120  
Bank: "Turon bank" Chilonzor filiali  
MFO: 01084 Telefon: 71-244-25-67, 71-244-32-51

Direktor  B.A. Shobo'tayev  
Yurist

#### Buyurtmachi:

"TOSHKENT SHAHAR SUV TA'MINOTI"  
MChJ

OOO «TOSHKENT SUV TA'MINOTI»  
100060, Respublika Uzbekistan, g. Tal.  
ul. Fidorov, dom-2. Tel: 71-252-19-55, 71-252-19-56  
P/c 2020 8000 4001 0149 9  
ATMB Inotona banki v Mexhatskiy fi  
MFO: 01084 INN: 201 052 713 OKZL

  
J.N. Abdokanov  
2022.11.18 17:00 Jucnamme T.B